

G'oya – maqsad, himoya - burch

Vatan himoyasi muqaddas burch ekanini his etib yashash yurt taqdiriga daxldorlik tuyg'usi bilan aloqador. O'z yurtini ko'z qorachig'idek asrash jasorat va vatanparvarlikni taqozo etadi. Matonatli insonlar o'z yurtini qo'riqlashga qodir va qobildir. Shu orqali yurt tinchligi va osoyishtaligi uchun bor qobiliyatini ishga soladi.

2019 yil 11 yanvar kuni "Vatan himoyachilari kuni" munosabati bilan ta'lim muassasalarida "Mardlar qo'riqlaydi Vatanni" mavzusida harbiy xizmatchilar, ziyolilar, san'atkorlar va jamoat arboblari ishtirokida tadbirlar yuzasidan Toshkent shahridagi 276-maktabda institutimiz Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi, harbiy kafedra hamda institutning QVZ "Targ'ibot" jamoasi tomonidan tadbir tashkil etildi.

Tadbirda institutimiz harbiy kafedrasida katta o'qituvchisi podpolkovnik Ergashev Haydar Ikromovich, harbiy kafedra sikl boshlig'i podpolkovnik Teshaboyev To'likin Yakubovich, Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i Haydarov Zuxriddin Rabiyeovich, maktab o'qituvchilari jamoasi hamda o'quvchilari ishtirok etishdi. Harbiy-vatanparvarlik ruhida olib borilgan tadbir maktab o'quvchilarida katta taassurot qoldirdi. Tadbir yakunida institutimiz "Targ'ibot" jamoasi tomonidan o'quvchilarga kulguga boy chiqish namoyish etildi. Tadbir qiziqarli va mazmunli yakunlandi.



**Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi boshlig'i Haydarov Zuxriddin Rabiyeovich
axboroti**

Institut Matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov